

**O'ZBEGIM ZULFIYASI****Raximiy Xurshidaxon Sharifovna**

Xorazm viloyati Urganch shahri Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filiali  
1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13774345>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Zulfiya Isroilovanning hayoti va ijodi, hamda uning she'riy toplamlari haqida badiiy qarashlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Zulfiya Isroilova, she'riyat, davlat arbobi, mutolaa, she'rlar, nashriyot, muharrir, bo'lim boshlig'i, jurnal, asarlar, to'plam, Xalqaro sovrin, Osiyo, Afrika, Rus, Ingliz, Nemis, Hind, Bolgar, Xitoy, Arab, Fors, ma'naviy, axloqiy, Sharq ayoli, Hindiston.

**ZULFIYA OF UZBEK**

**Abstract.** This article gives an artistic vision of the life and work of Zulfiya Israelova, as well as her poetic collections.

**Key words:** Zulfiya Israelova, poetry, statesman, reading, poems, publishing house, editor, head of department, magazine, works, collecton, International Prize, Asia, Africa, Russian, English, German, Indian, Bulgarian, Chinese, Arabic, Percian, spiritual, moral, Eastern woman, India.

**ЗУЛЬФИЯ УЗБЕКА**

**Аннотация.** В этой статье представлены художественные взгляды на жизнь и творчество Зулфии Израиловой, а также ее сборники стихов.

**Ключевые слова:** Зулфия Израилова, поэзия, государственный деятель, чтение, стихи, издатель, редактор, заведующий отделом, журнал, шедевр, коллекция, Международный приз, Азия, Африка, Русский, Англиский, Немецкий, Хинди, Болгарский, Китайский, Арабский, Персидский, духовный, моральный, Восточная женщина, Индия.

Benazir ayol, buyuk ona, vafo va sadoqat timsoli shoira Zulfiya Isroilovanning tavalludigaham 108 yil bo'libdi.

XX asr o'zbek she'riyatining zabardast vakillaridan biri, davlat arbobi Zulfiyaxonim bugungi kun o'quvchilari uchun yaxshi tanish. Maktab darsliklarida shoiraning qator she'rlarini mutolaa qilganmiz. Vatan, muhabbat, vafo, ezgulik tuyg'ulariga yo'g'rilgan she'rlar barchamizning ko'nglimizdan munosib joy olgan.

O'zbek xalqining sevimli adibasi 1915-yil 1-martda Toshkentda tug'ilgan. 1938-1948-yillarda, Bolalar nashriyotida muharrir, O'zbekiston Davlat nashriyotida bo'lim boshlig'i, 1950-

1953-yillarda “O‘zbekiston xotin-qizlari”, “Saodat” jurnalida bo‘lim boshlig‘i, 1953-1980-yillarda esa bosh muharrir bo‘lib ishlagan.

Ulardan tashqari “She‘rlar” va “Qizlar qo‘shigi” (1938) kabi poetik asarlari, Ikkinchi jahon urushi davrida “Uni Farhod der edilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944), kabi to‘plamlarining nashr etilishi adibaning peshqadam shoirlar qatoriga dadil kirib kelayotganidan nishona edi.

“Uylar”, “Shalola” kabi she‘riy majmualari uchun Davlat mukofoti sovrindori bo‘lgan.

Hind mavzuyidagi she‘rlari uchun Javoharlar Neru nomidagi xalqaro sovrin, tinchlik va do‘stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro “Nilufar” mukofotiga sazovor bo‘lgan.

“Dalada bir kun” (1948), “Tong qo‘shig‘i” (1953), “Men tongni kuylayman”, “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Kuylarim sizga” (1965), “So‘roqlaydi shoirni she‘rim” (1960), “Oydin” (1953), “Mushoira” (1958), “Quyoshli qalam” (1967) kabi to‘plamlari esa shoira ijodining gultoiji hisoblanadi.

She‘rlari rus, ingliz, nemis, bolgar, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Shoira Nekrasov, Lermantov, V.inber, Lesya Ukrainka, Edi Ognetsvit, M.Dilboziy, Amrita Pritom asarlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘giran.

“Muhtaram Prezidentimizning Zulfiyaxonim tavalludining 100 yillicini nishonlash haqidagi qarori munosabati bilan joylarda o‘tkazilayotgan tadbirlar, hotira kechalarida biz ustozning ibratli hayoti, shaxsiga bir karra sog‘inchli nigoh tashlaymiz, unuta boshlaganlarimizni eslaymiz. “Xalq mehrida yorman el shuhratiga”, - deya ijod qilgan, yashagan ulug‘ inson qalbiga yaqinroq boramiz” - deyiladi “Til va adabiyot” jurnalining 2015-yil 1-sonida.

Shoira haqida oldinham va hozirham hamma yaxshi fikrda bo‘lgan va hozirham bo‘lyaptilar. Shoiraning she‘rlari abadiiy qalbimizda muhrlanadi!

“Shunday insonlar borki, hayotligingizdayoq uning umri afsonalarga, go‘zal qo‘shiqlarga aylanadi. Uning mukammal hislatlari millatning ma‘naviy-axloqiy qiyofasini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston xalq shoirasi, jahonga mashhur Zulfiyaxonim chin ma‘noqa Sharq ayolining, donishmand, fozila onalarning timsoliga aylangan edi. U nechog‘lik ulug‘ martabalarga erishmasin, xalqning o‘zida sodda, oliyanob va barchaga birday yaqin edi”, -deydi “Saodat” jurnalining 1996-yil N5 sonida.

O‘zining jozibali ijodi, nurga yo‘g‘rilgan faoliyati bilan o‘zbek ayolining timsoliga aylangan shoira biz uchun ardoqlidir.

1956-yil o‘zbek she‘riyatining o‘lmas va betakror shoirasi Zulfiya Isroilova Hindistonda bo‘lib o‘tgan Mushoirada qatnashib, davradagi barcha shoiralarni qoyil qoldirib, o‘zbek

she'riyatining yorqin namoyondasi sifatida nechog'lik tajribali, sozga boy, iste'dodli shoira ekanligini namoyon etgan.

Zulfiyaxonim XX asr o'zbek adabiyotida, she'riyat va dostonchilikda sezilarli iz qoldirgan shoira hisoblanadi. Uning she'riyatida hayot zavqi, yaratish shavqi va g'oliblik g'ururi, kelajak sururi hamda insonlar baxti, oshiqlar ahdi, xalqning yovga, yomonlikka g'azabi, qirqin urush keltirgan hijron azobi-yu ayolning bardoshi, xullas xilma-xil hayotiy, insoniy tuyg'ular, fikrlar, g'oyalar ifodalanadi.

### REFERENCES

1. Zulfiya Isroilova. "Bahor keldi seni so'roqlab", "Yangi asr avlodi" nashriyoti. Toshkent. 2016-y. (2-3) bet.
2. Davlat mukofoti sovrindorlari ijodidan. "Zulfiyaning qizlari", G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti. Toshkent. 2000-y. (1-2) bet.
3. "To'maris izdoshlari" jurnalist ayollar klubi (Jamoat to'plami). "Zulfiyaxonim va uning xorazmlik qizlari", "Xorazm" nashriyoti. Urganch. 2015-y. (2-82) bet.
4. "Til va adabiyot" jurnalining 2015-yil 1-sonida.
5. "Saodat" jurnalining 1996-yil 5-sonida.